

ANDIJON VILOYATI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA EKOMARKETINGNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Sotvoldiyev Egamberdi Mo'minjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti

Agrobiznes va marketing kafedrası assistenti

E-mail: egamberdi.sm1997@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Andijon viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida ekomarketingni joriy etish zaruriyati, mavjud muammolar va ularning yechimlari yoritilgan. Eski texnologiyalar, chiqindilarni boshqarishdagi kamchiliklar, ekologik ongning pastligi asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatilgan. Yashil marketingni rivojlantirish bo'yicha taklif etilgan strategiyalar resurslardan samarali foydalanish, ekologik mahsulotlarni targ'ib qilish va davlat qo'llab-quvvatlovini kuchaytirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: ekomarketing, yashil texnologiyalar, oziq-ovqat sanoati, ekologik muammo, barqaror rivojlanish, Andijon viloyati.

Аннотация

В статье рассматриваются проблемы и перспективы развития экомаркетинга на предприятиях пищевой промышленности Андижанской области. Отмечены основные барьеры: устаревшие технологии, слабое управление отходами и низкий уровень экологического сознания. Предложенные стратегии направлены на эффективное использование ресурсов, продвижение экологически чистой продукции и усиление государственной поддержки устойчивого производства.

Ключевые слова: экомаркетинг, зелёные технологии, пищевая промышленность, экологические проблемы, устойчивое развитие, Андижанская область.

Abstract

The article explores challenges and solutions for developing eco-marketing in the food production sector of Andijan region. It highlights key issues such as outdated technologies, poor waste management, and low consumer environmental awareness. The proposed strategies focus on improving resource efficiency, promoting eco-friendly products, and increasing state support to advance sustainable production in the region.

Keywords: eco-marketing, green technologies, food industry, environmental issues, sustainable development, Andijan region.

Andijon viloyati, O'zbekistonning eng muhim oziq-ovqat ishlab chiqarish markazlaridan biri sifatida, so'nggi yillarda sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida jiddiy o'zgarishlarga duch kelmoqda. Oziq-ovqat sanoati nafaqat iqtisodiy ahamiyatga ega, balki ekologik muhitga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, ekologik marketing (ekomarketing)ning rivojlanishi, resurslarni samarali boshqarish, barqaror

ishlab chiqarish va iste'molchilarga ekologik mahsulotlar taqdim etishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Bu maqolada Andijon viloyatidagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida ekomarketingni rivojlantirishdagi mavjud muammolar va ularga yechimlar ko'rib chiqiladi. [1]

Yer kurrasi iqlimining o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejankor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashda o'zaro uzviy bog'liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko'rsatdi.

«Xususan, jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda.

Iqtisodiyotning barcha sektorlarida energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, «yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Uzoq muddatli strategiyaning mavjud emasligi «yashil» texnologiyalarni joriy etish va «yashil» iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tizimli choralar ko'rishni ta'minlashga imkon bermayapti¹».

Yuqoridagi insoniyat uchun muhim hisoblangan dolzarb muammolarni ijobiy hal etishda iste'molchilarning ekologik ongini oshirish, yashil mahsulotlar ishlab chiqarish, ekologik mas'uliyatni kompaniya imijining ajralmas qismi sifatida shakllantirish, ekologik barqarorlikka asoslangan marketing strategiyalarini ishlab chiqish kabi vazifalarni sistemali muntazam bajarilishini ta'minlashimiz zarur. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida ekologik marketingni rivojlantirishni talab qiladi. [2]

Ekologik marketing muhtojlik talab ehtiyojini atrof muhitga va inson organizmiga bezararlikni ta'minlagan holda almashinuv jarayoni orqali qondirishga qaratilgan inson faoliyatidir.

Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida ekologik marketingni quyidagi vazifalari mavjud:

- Ishlab chiqarish va mahsulot sotish jarayonida tabiiy resurslarini tejash – ushbu vazifa bizdan ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlanadigan materiallar va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali resurslardan samarali va maqsadli foydalanishni talab qiladi.

- Iste'molchilarga ekologik toza mahsulotlar taklif etish – ushbu vazifa bizdan organik, qayta ishlanadigan yoki ekologik sertifikatlangan mahsulotlar ishlab chiqarish va ularga bo'lgan talabni tizimli ravishda shakllantirish va oshirishni talab qiladi.

- Brendning ekologik imijini yaratish – ushbu vazifa esa bizdan ekologik mas'uliyatni kompaniya brendining ajralmas qismi sifatida taqdim etish, shu orqali

¹ «2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori, 05.10.2019y., lex.uz

iste'molchilarga ekologik nuqtai nazardan ishonchli va barqaror mahsulotlar taqdim etishni talab qiladi.


Andijon viloyati O'zbekistonning eng rivojlangan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati markazlaridan biridir. Viloyatning oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan turli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish keng tarqalgan. Biroq, sanoatning ekologik holati ham ijobiy emas. Asosan eski va kam samarali ishlab chiqarish texnologiyalari ishlatiladi, natijada atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatilmoqda. Ayniqsa, pestitsidlar va kimyoviy moddalar ishlatilishi, energiya sarfi yuqoriligi va chiqindilarni samarali qayta ishlashning yo'qligi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Andijon viloyatida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoatida ekologik ta'sirlar quyidagi asosiy sohalarda namoyon bo'lmoqda:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan, sug'oriladigan yer resurslarining samarasiz ishlatilish holatlarining mavjudligi, tuproq unumdorligini pasayishi, kimyoviy moddalar va pestitsidlarning yerga, suvga va mahsulotlar tarkibiga kirib borishi, bu esa atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlatiladigan energiya miqdori yuqori va chiqindilarni qayta ishlash masalasi ham ijobiy hal qilinmagan.

Andijon viloyatidagi oziq-ovqat sanoatining ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uchun raqobatbardosh texnologiyalar va resurslar yetishmayapti. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalar hali ham eski texnologiyalarni qo'llashda davom etishmoqda, bu esa resurslarni isrofgarchilik bilan ishlatishga, chiqindilarni kamaytirishga esa salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi raqobatbardosh texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar ham cheklangan.

Iste'molchilar orasida ekologik toza mahsulotlar haqidagi ma'lumot, bilimlarning yetarli emasligi, ekologik marketingning ahamiyatiga nisbatan kamchiliklar mavjud. Ko'plab iste'molchilar ekologik toza mahsulotlarni tanlashda narx va sifatni ustun qo'yadilar, bu esa ekologik mahsulotlarning bozorda keng tarqalishiga to'sqinlik qiladi. [1]



1-rasm. Ekologik marketingni rivojlantirish strategiyalari¹

¹ Muallif ishlanmasi

Ekomarketingni rivojlantirishda o'zgarishlar kiritish, raqobatbardosh bozorni shakllantirish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarish qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ekologik sertifikatlar olish, ekologik marketingni amalga oshirish va mahsulotni bozorga chiqarishning o'zi ko'p vaqt va mablag' talab qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobatni yengish uchun yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va reklama qilishda qo'shimcha xarajatlarni qoplay olmayapti.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni ijobiy hal etish uchun Andijon viloyatidagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ekologik marketingni rivojlantirishi zarur va quyidagi strategiyalarni amalga oshirishi lozim:

- Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida mavjud resurslarni tejash va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy etish zarur. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

- Mahsulotlar ekologik jihatdan toza bo'lishi va inson organizmiga, atrof-muhitga zarar yetkazmasligi uchun sanitariya epidemiologik xulosa berish (avvalgi sertifikatlashtirish) tizimini tubdan yaxshilash zarur. Ekomarketingda mahsulotlarning ekologik xususiyatlari muhim o'rin tutadi.

- Ishlab chiqarilayotgan xar bir mahsulotning ekologik xususiyatlari haqida iste'molchilarni xabardor qilish va unga bo'lgan ehtiyoj va talabni shakllantirish va uni muntazam ortib borishini ta'minlash uchun reklama va marketing materiallarini tayyorlash, yashil mahsulotlarning foydalari haqida tushuncha berish – ekomarketingning samaradorligini oshiradi.

- Mahsulot ishlab chiqarishda yashil texnologiyalarni qo'llash, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik zararsiz mahsulotlar ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Andijon viloyatidagi oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarishida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik ta'sirni yengillashtirish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari mavjud.

Bizning fikrimizcha, ekologik marketingni rivojlantirish uchun quyidagi tizimli tadbirlarni hayotga tatbiq etilishiga erishishimiz zarur:

- har qanday oziq ovqat mahsulotini ishlab chiqarishning asosiy xom ashyo bazasi qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Shuning uchun eng avvalo ekologik marketingni rivojlantirish uchun xom ashyoni organik mahalliy o'g'itlar asosida yetishtirishni yo'lga qo'yishimiz zarur;

- tuproq unumdorligini pasaytiruvchi, suv zaxiralarini ifloslantiruvchi polietilen chiqindi va qoldiqlardan batamom xalos bo'lishni amaliy tadbirlarini ishlab chiqib, belgilangan muddatda bunga erishishimiz zarur;

- maktabgacha ta'lim, o'rta, o'rta-maxsus, oliy ta'lim muassasalarida ekologik ongni shakllantirish uchun majburiy doimiy o'quv kurslarini tashkil qilish zarur;

- mulk shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik subyektlari rahbarlarining zimmasiga ekologik tozalikni ta'minlash mas'uliyatini yuklash yuzasidan huquqiy asos yaratilishi zarur; [1]

– masjid, madrasa va diniy marosimlarda ekologik ongini shakllantirish, atrof muhit tozaligini ta'minlash borasidagi amaliy tadbirlarni muntazam o'tkazish zarur;

– Mamlakatimizda amaldagi barcha qonun va me'yoriy hujjatlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabr PQ-4477-son «2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 95-son, 18.02.2020-yildagi «Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida»gi qarorlari ijrosini sistemali ta'minlash zarur;

– Mamlakatimiz miqyosida «Eng ekologik toza mahalla», «Ekologik toza hudud», «Ekologik toza mahsulot ishlab chiqaruvchi», «Ekodo'kon», «Ekomarket» kabi nominatsiyalarga asoslangan tanlovlarni davlat byudjeti va xomiylik mablag'lari hisobidan muntazam o'tkazilishiga erishish zarur. Tanlov g'oliblariga maxsus sovg'alardan tashqari, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ekologik sertifikatlarni taqdim etilishiga erishish zarur. [2]

Ekomarketingni rivojlantirishda davlatning roli katta. Ekologik va barqaror ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun davlat soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ekologik sertifikatlarni taqdim etishi lozim. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga ham yordam beradi.

Andijon viloyatidagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida ekomarketingni rivojlantirish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu sohadagi muvaffaqiyat ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va yashil mahsulotlar ishlab chiqarishning optimallashtirilgan tizimini yaratishga bog'liq. Shu bilan birga, ekomarketingni joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan resurs va texnologiyalar yetishmasligi, iste'molchilar orasida ekologik xabardorlikning pastligi va raqobatbardoshlik muammolari kabi qiyinchiliklar mavjud. Shu sababli, Andijon viloyatidagi oziq-ovqat sanoatida ekomarketingni rivojlantirish uchun bir qator kompleks choralar kerak. Bular orasida barqaror ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarni ekologik sertifikatlash, iste'molchilarga ekologik toza mahsulotlar haqida ma'lumot berish, va innovatsion texnologiyalarni qo'llash alohida o'rin tutadi. Bunda davlatning qo'llab-quvvatlashi, soliq imtiyozlari va subsidiyalar yordamida korxonalarga iqtisodiy rag'bat berilishi muhim ahamiyatga ega. Ekomarketing nafaqat atrof-muhitni asrashga, balki sanoatning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Bunday strategiyalarni amalga oshirish Andijon viloyatidagi oziq-ovqat sanoatini global bozorlar bilan raqobatbardosh, barqaror va ekologik toza ishlab chiqarish tizimiga aylantirishi mumkin.

Ekomarketingning rivojlanishi natijasida, Andijon viloyatidagi oziq-ovqat sanoati nafaqat ekologik muammolarni hal qilishda, balki uzoq muddatli barqaror o'suvchi iqtisodiy rivojlanishda ham o'z o'rnini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 05-oktyabr PQ-4477-son .«2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga

o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori <https://lex.uz/docs/-4539502>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevral 95-son «Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida»gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4739971>

3. Sh.M.Mirziyoev. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisidagi nutqi., <https://iibb.uz/uz/news/prezident-20-11-2024>

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_geografiyasi